

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2023 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nodir Jo'raqo'ziev
Ziyoda Teshaboyeva
Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlyanov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Uşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editors in Chief: Nodir Jurakuziev
Ziyoda Teshabaeva

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlyanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova

Gazeta tilidagi ba'zi standart vositalarning grammatik-funksional xususiyatlari.....6

Sayali Sadıqova

Azərbaycan dilində hərbi termin yaradıcılığı.....19

Nurislom Xursanov

Tilshunoslikda diskurs va pragmatikaga aloqador hodisalar.....30

Rəxşanə Babazadə

Eyni kökdən ayrılan mənalar (Azərbaycan və Türkiyə Türkçələri əsasında).....46

Ehsanullah Quvanch

O'zbek tilining Afg'oniston Islom Respublikasi davridagi ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni.....60

Adabiyotshunoslik

Ilhom Aslonov

Temuriy hukmdorlar obrazining "Boburnoma" da aks etishi.....73

Gulandom Yuldasheva

Mariya Sabtelni tadqiqotlarida Hirot madaniy muhiti tavsifi.....84

Etnologiya. Etnografiya. Antropologiya

Adhamjon Ashirov

O'zbek xalqi turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti.....97

San'at

Jamoliddin Jo'rayev

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari qo'lyozmalariga ishlangan miniatyuralar xususida.....108

CONTENT

Linguistics

Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova

Grammatical and functional characteristics of some
standard tools in newspaper language.....6

Sayalı Sadıqova

Creation of military terms in the Azerbaijani language.....19

Nurislom Khursanov

Discourse and pragmatics: phenomena in linguistics.....30

Rəxşanə Babazadə

Meanings separated from the same root.....46

Ehsanullah Quvanch

The status of the Uzbek language during the Islamic
Republic of Afghanistan and its place in the state system.....60

Literature

Ilhom Aslonov

Reflection of the image of the Timurid rulers in "Baburnama".....73

Gulandom Yuldasheva

A description of the cultural environment of Herat in the studies
of Maria Sabtelni.....84

Ethnology. Ethnography. Anthropology

Adhamjon Ashirov

The cult of the horse in the oral creativity of the lifestyle
of the Uzbek people.....97

Art

Jamoliddin Juraev

On the miniatures worked to the manuscripts of Haydar Khorazmi's
"Gulshan ul-asrar"108

O'zbek tilining Afg'oniston Islom Respublikasi davridagi ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni

Ehsanullah Quvanch¹

Abstrakt

Afg'oniston davlati aholisining to'rtidan bir qismini o'zbek xalqi tashkil etadi. Ushbu xalq vakillari esa, uzoq yillar davomida tili va madaniyati uchun kurashib kelmoqdalar. Mazkur maqola o'zbek tilining Afg'oniston Islom respublikasi davridagi ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni haqida bo'lib, ushbu til uchun bo'lgan ish faoliyatlari ham qonuniy hujjatlar asosida izohlangan. Maqola ayni shu mavzudagi dissertatsiya tadqiqoti natijalari bo'yicha to'plangan. Maqsad Afg'oniston o'zbeklari o'z tili va madaniyati uchun qilgan sa'y-harakatlari va faoliyatlarini ko'rsatib berishdir. Bu borada Afg'oniston o'zbeklari tomonidan ko'plab maqola va kitoblar yozilgan, nashr qilingan. Mazkur ishlarda o'zbek tilining tarixiy jug'rofiyasi, siyosiy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilingan. Berilgan ma'lumotlar orqali Afg'onistonda o'zbek tili uchun so'nggi yigirma yilda bo'lgan amaliy ishlardan xabardor bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar: *Afg'oniston, o'zbek tili, maktablar, universitetlar, san'at, matbuot, konstitutsiya.*

Kirish

Bundan yigirma yil oldin – 2001-yil 20-sentabrda Tolibonning eski hukumati yengildi. Shundan keyin Afg'oniston Islomiy Respublikasida Homid Karzayning vaqtinchalik prezidentlik davri boshlandi. Ushbu yangi respublikaning yigirma yillik faoliyati davomidagi o'zbek tilining ahvoli va vaziyatini imkon qadar ko'rib chiqamiz.

2003-yilning o'n birinchi oyi Kobulda 53 kishi ishtrokida

¹*Ehsanullah Quvanch* – tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ehsanullah.quvanch1@gmail.com

ORCID ID: 0009-0005-0627-1009

Iqtibos uchun: Ehsanullah Quvanch. 2023. "O'zbek tilining Afg'oniston Islom Respublikasi davridagi ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 60-72.

Afg'oniston konstitutsiysining katta yig'ini bo'lib o'tdi. Konstitutsiya uchun tashkil etilgan qo'mitalarda yangi konstitutsiya bo'yicha juda ko'p munozaralar bo'ldi. Munozarali masalalardan biri asosiy qonunda turkiy (o'zbek-turkman) tillarining mamlakatda rasmiy til sifatida qabul qilinishi edi. Haqiqatdan, ushbu tillning bunday maqomga ega bo'lishida 2003-yili yo'lga qo'yilgan asosiy qonunda qatnashgan shimol va shimoliy-sharqiy viloyat vakillari, ayniqsa, Marshal Abdurrashid Do'stunning yetakchiligi asosida o'zbek va turkman namoyondalari o'z jasoratini ko'rsatdilar [Aral 2020, 14]. Najjada, Afg'oniston asosiy qonunida quyidagicha matn qabul qilindi: "Aholining ko'p qismi o'zbek, turkman, pashtu, nuristoni, baluchi, yoki pomiri tillaridan birini biladigan hududlarda bu til push-tun va dariy tillaridan tashqari rasmiy uchinchi til bo'lib, bu tilni kuchlantirish va quvvatlantirish davlat zimmasidadir. Ayni holda ushbu tillarni qo'llash tartibi qonun bilan tartibga solinadi [Qonun-mal 1392, 433].

O'zbek tilidagi ommaviy axborot vositalari

O'zbek tilining Afg'oniston ommaviy axborot vositalarida qo'llanishi qariyb 50 yillik tarixga ega. Afg'onistonda Tolibonning eski hukumatidan keyin, yangi respublika hukumati tuzilganidan so'ng o'zbek tilidagi yoyilmalar (nashriyotlar) Afg'oniston matbuotida ustuvorlik bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi. So'nggi yillarda davlat yoyinlari – ommaviy axborot vositalarida o'zbek tili ko'proq ko'zga ko'rindi. Afg'oniston milliy radio va televideniya har kuni o'zbek tilida yarim soatlik ko'rsatuvlar olib borildi. Afg'onistonlik o'zbeklar Afg'oniston milliy radio va televideniya doirasida o'zbek tilida mustaqil radio va televideniya tashkil etishga chaqirdilar [Kuhkan 2020].

Ushbu saylov vositasi bilan kelgan hukumat davrasida o'zbek tili matbuoti uchun ko'zga ko'rinarli ishlar bajarildi. Undan oldingi hukumat davralarida xususiy video yetkazmalar (ko'rsatuvlar) bo'lmay, davlat milliy telekanalida esa o'zbek tili uchun yarim soatlik vaqt ajratilgan edi. Afg'oniston o'zbeklari kurashishi va ayniqsa, ziyolilarning tashabbusi bilan ushbu demokratik tizim davrida o'nlarcha televideniya qurildi va o'zbek tili ham o'ziga yarasha Afg'oniston matbuotida o'rin oldi. Endi "Afg'onistonda yangi tizim kelishi bilan shu davrada demokratiya shabbodalari esayotgani oz bo'lsa-da sezilib qoldi. Mana shu yangi tizim asosiy qonuni o'zbek-turkman tillari rasmiy maqomga ega bo'lishi va o'zbek tilida faoliyat qilish eshiklarini ochdi. Ana shunday sharoitda Marshal

Abdurrashid Do'stgm tashabbusi bilan "Oyna" televideniya ilk xususiy televideniya o'laroq ish boshladi va bundan o'zbek dasturlari keng tarqatildi, o'zbek tili rivoji uchun katta imkoniyat bo'ldi. Nihoyatda mana shu ichki harakatlar sababli xalqaro ommaviy axborot vositalari ham Afg'oniston o'zbek tili uchun dasturlar yaratishga kirishdi [Tuyg'un 2020, 279].

Mana shu asosda 2001-yildan boshlab Afg'oniston tarixida birinchi marta xususiy yetkarmalar faoliyat boshladi. Mamlakatda asos qo'yilgan "Oyna" televideniya orqali o'zbek tilida yangiliklar va ko'rsatuvlar tayyorlanib yoyila boshladi. "Oyna" telekanalidan bo'lak "Oriyona" xalqaro televideniya, "Orzu", "Nurin", "Nur" va "Rohi Fardo" kabi xalqaro televideniyaalarida ham o'zbek bo'limlari ochilib, fors va pushtun tillari yonida o'zbek tilida ham ko'rsatuvlar qo'yila boshlandi. Bu ko'rsatuvlarni o'zbeklardan boshqa xalqlar ham diqqat-e'tibor bilan ko'rdilar [To'lqin 2020, 239-140].

Ayniqsa, "Oyna" va "Botur" telekanallari Afg'oniston o'zbek tili rivojida katta ro'l o'ynadi. Ushbu "Oyna" xususiy televideniya-da so'z erkinligini ta'minlash uchun Afg'oniston bo'yicha ilk marta Marshal Abdurrashid Do'stum moliyaviy ko'magi bilan qurildi, butun imkoniyatlar ishga solindi va bularning hammasi o'zbek tili yuksalishi uchun xizmat qildi. Yana mazkur fidoyi rahbar "Oyna" televideniyaasini o'zbek tili rivoji uchun yetarli hisoblamay, o'zbek tiliga ixtisoslashgan "Botur" televideniyaasini ham qurib, bu televideniya-da to'qson foiz dasturlarni o'zbek tilida berdirtirdi [To'lqin 2020, 87-88].

2001-yilda, Homid Karzay rahbarligi ostida yangi Afg'oniston Islom respublika davlati butun mamlakatda qaror topishi bilan Afg'oniston milliy radiosida qaytadan 30 daqiqalik o'zbekcha dastur boshlandi.

O'zbek tili Afg'oniston ommaviy axorot vositalarida qo'llanishi qariyb 50 yillik tarixga ega va Afg'onistonda Tolibondan keyingi yangi hukumat tuzilgandan so'ng o'zbek tilidagi eshittirishlar Afg'oniston matbuotida pushtun va fors tillaridan keyin uchinchi o'rinni egalladi. So'nggi yillarda davlatning ommaviy axborot vositalarida audio eshittirishlar o'zbek tilida ko'proq ko'zga tashlanmoqda edi. Afg'oniston radio va televideniya har kuni o'zbek tilida yarim soatlik dasturlar tarqatar edi. Afg'onistonlik o'zbeklar Afg'oniston milliy radio va televideniyaasida o'zbek tilida mustaqil radio va televideniya tashkil etilishni talab qildilar. Lekin Afg'oniston hukumati yangi radio va televideniya tashkil qilmay, ushbu davlat telekanallarida o'zbekcha dasturlardan boshqa ortiqcha ish qilmadi.

Ayni holda 2001-2021-yillarigacha milliy radiodan tashqari o'nlarcha jahoniy, milliy va mahalliy radiolar, Afg'oniston poytaxti Kobulda va ularning turli viloyatlarida faoliyat boshladi. Ushbu radiolar Tolibon sobiq hukumati qulatilib, saylov vositasida tashkil etilgan Afg'oniston Respublika hukumati yuzaga kelishi bilan Afg'oniston xususiy matbuoti hamda davlat matbuoti yonida taraqqiyot topgan edi. Yangi saylangan hukumat tashkil etilmasdan oldin faqatgina bitta milliy radiodan ortiq xususiy radiolar mavjud emas edi. Tashkil etilgan radioning ko'pchiligi pushtun va dariy tillarida yoyinmalar (eshittirishlar) berar edilar. Lekin mamlakat bo'yicha bir qator jahoniy va milliy radiolar, ayniqsa, shimoliy va shimoli-sharqiy viloyatlarida yoyinmalar (eshittirishlar) beradigan mahalliy radiolar ushbu mintaqalarda o'zbeklar son jihatdan ko'p bo'lganligi sababli o'zbek tilida ham yoyinma (eshittirish) berilib kelingan.

Mana shu yigirma yillik saylangan hukumatlar davrida bir qancha mustaqil radiolar tashkil etilib, faoliyat qildi. "Radio Zamona" yozishiga ko'ra, "Afg'onistonda Tolibon hokimiyatni qo'lga kiritgunga qadar jami 483 ta ommaviy axborot vositalari, jumladan, 190 ta radio stansiya, 96 ta telekanal va 183 ta bosma nashriyotlar faoliyat ko'rsatgan.

Hududiy jihatdan olib qaralganda, o'zbeklar mamlakatning shimoli va shimoli-sharqiy hududlaridagi 9 ta viloyatda zich yashaydilar. Shuning uchun mamlakat poytaxti Kobul hamda ushbu viloyatlardagi radiolar tartib bilan viloyat nomi bilan ko'rsatilgan:

1. Foryob viloyatidagi "Foryob" milliy radiosi, "Tamanno", "Sihat", "Turkiston", "Maymana", "Shirintagob", "Kurbat", "Mumtoz" va "Quyosh" radiolari.

2. Saripul viloyatidagi "Saripul" milliy radiosi, "Bonu" va "Ambir" radiolari.

3. Javzijon viloyatidagi "Javjijon" milliy radiosi, "Suroyish", "Darmon", "Armag'on", "Bo'ston" va "Oyna" radiolari.

4. Balx viloyatidagi "Islomiy sabz", "Orizu", "Mehr", "Navbahor", "Nasli Navin", "Lahza", "Bond F.M", "Dilorom", "Navo", "Mehribon", "Mo", "Pulis", "Umidiyavon", "Shahr", "Milliy Balx radiosi", "Robiyai Balxiy", "Sitorai Sahar", "Nihod", "Kalit" va "Bayonishimol" radiolari.

5. Samangon viloyatidagi "Samangon" milliy radiosi, "Haqiqat", "Rustam" va "Shaharvand" radiolari.

6. Bag'lon viloyatidagi "Bag'lon" milliy radiosi, "Orizuho", "Adib", "Paymon", "Tarojmir", "Farhat", "Sano" va "Xo'shi" radiolari.

7. Qunduz viloyatidagi “Xovar”, “Zuhra”, “Ravshani”, “Chirog”, “Kayhon” va “Jayhun” radiolari.

8. Taxxor viloyatidagi “Taxxor” milliy radiosi, “Simoyi mehr”, “Rayhon”, “Taxxoriston”, “Oyxonim”, “Hamsado” radiolari.

9. Badaxshon viloyatidagi “Badaxshon” milliy radiosi, “Omu”, “Ko’kcha”, “Bahoriston”, “Sadoi kishm”, “Bozgul” radiolari.

Bu ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritib kelayotgan 67 ta jahoniy va mahalliy radiolarning 80 foizi o‘zbek tilida dasturlar yaratib kelganlar [Sozmoni Farhang va irtibototi islomiy]. Hozir esa ushbu radio stansiyalarning faoliyati moliyaviy muammolar tufayli to‘xtatilgan.

Qonun himoyasi ostida, mamlakatda o‘nlab va yuzlab ommaviy axborot vositalari sanalgan radio va televideniya, jurnal, gazeta, oyliklar, fashnomalar faoliyat boshladi. Mana shu 2001-2021-yillar davomida o‘ttizdan ortiq jurnallar va gazetalar faqat o‘zbek tilida faoliyat olib borgan. Ushbu maqolada 40 ta jurnal va gazetalar o‘rganilib chiqildi. Mazkur jurnal va gazetalarining bir qatori forscha-o‘zbekcha bo‘lgan. Ular esa quyidagilardan iborat: “Yulduz”, “Quyosh”, “To‘g‘riyo‘l”, “Yog‘du”, “Chovush”, “Ulus”, “Bilgi”, “Taxxoriston ko‘zgusi”, “O‘zgu”, “Kurash”, “Ishonch”, “Maymana”, “Ildiz”, “Navoiy”, “Vatandoron”, “Ezgu-To‘g‘u”, “Oydin”, “Oydin Saripul”, “Oydin Andxo‘y”, “Oydin Foryob”, “Oydin Toliqon”, “Oqyo‘l”, “Buloq”, “Ipak yo‘li”, “Bulut”, “Ezgu”, “Cho‘lpon”, “Yangi nasl”, “Qarash”, “Amir Temur”, “Yangi Zamon”, “Go‘zal Foryob”, “Yozuv”, “Sog‘lom”, “Oybek”, “Yashilyaproq”, “Millat sesi”, “Simoi zan”, “Oynai zan va Ambira”lardir. Hozirgi kunda yuqorida nomlari keltirilgan gazeta va jurnallarning ko‘pchiligi turli muammolar sababli ishlamayapti.

Afg‘oniston o‘zbeklari o‘z imkoniyatlariga yarasha kurashib, turli sohalarida, xususan, matbuot sohasida harakat qilganlar. “Mana shu ichki harakatlar sababli xalqaro yetkarmalar (OAV lar) ham Afg‘oniston o‘zbek tili uchun teledasturlar yaratishga kirishdi. Jumladan, BBC xalqaro yetkarmasi O‘zbekiston o‘zbek bo‘limidan tashqari yarim soat Afg‘oniston o‘zbeklari uchun ham dastur tarqatishga kirishdi. Buning yonida “Ozodlik”, “TRT”, “Amerika ovozi” kabi o‘nga yaqin xalqaro yetkarmalar esa o‘zbek tilida dasturlar yarata boshladi. Bu Afg‘onistonda o‘zbeklarning ko‘pligini ko‘rsatar edi [Tuyg‘un 2020, 279].

Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tili

Bugungu shiddatli zamonda ijtimoiy tarmoqlar ham tillar

taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bois zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda ham o'zbek tilidan foydalanishadi. Misol uchun: "Hozirgi kunda dunyo aholisining katta qismi ijtimoiy tarmoqlarda faol qatnashib, keng miqyosda undan foydalanib keladilar. Afg'oniston o'zbeklari ham bu karvondan orqada qolmay facebook, instagram, telegram va boshqa tarmoqlardan foydalanishi keng tus olmoqda. Mamlakatimizda ko'pchilik o'zbek yoshlari o'z facebook sahifalariga ega bo'lib, u yerda turli mavzular bo'yicha fikr-mulohazalarini yozib turadilar. O'zbeklar orasida ijtimoiy tarmoqlarda matnlarni ona tilida yozishga bo'lgan istaklar kun sayin kuchayib bormoqda [Kuhkan 2020, 103]. Ushbu ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar afg'onistonlik o'zbeklari ona tilining taraqqiy etishiga yordam beradi. Garchi ijtimoiy tarmoqlarda yozilayotgan xabar va ma'lumotlarda grammatik xatolar bo'lishiga qaramasdan yaxshi harakat deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi matnlar isbotiga ko'ra baland martabali davlat idoralari ham o'z ijtimoiy tarmoqlaridan o'zbek tilida yozganlar. Mana shunga asos, birinchi marta "2019-yili may oyining 28-kunida prezident matbuot idorasida pushtun va dariy tillari yonida o'zbek tili bo'limi ham ochilib faoliyat boshladi. Prezident faoliyatlariga oid yangiliklar prezident saroyining veb-sayti, facebook va twitter sahifalarida nashr etilar edi. Prezident saroyining matbuot tashkilotida o'zbek bo'limi ochilib faoliyat boshlagani ortidan Afg'oniston Islom Respublikasining ikkinchi o'rinbosarligi matbuoti bo'limi, Afg'oniston Islom Respublikasining milliy xavfsizlik kengashida, Afg'oniston Birishno kompaniyasi, Milliy tadorikot va Afg'oniston Oliy sudining tashkiloti doirasida o'zbekcha bo'limlar faoliyat boshlagan edi. Mana shu ijtimoiy tarmoqlar faoliyatlari davomida Afg'oniston saylovlar mustaqil komissiyasi, saylovlar bo'yicha shikoyatlarni tinglash kompaniyasi hamda ish va ijtimoiy ishlar bo'yicha vazirligining matbuot bo'limlari tomonidan doimiy ravishda o'zbekcha xabarlar nashr etilar edi. Ushbu baland martabali tashkilotlarning bir qatorlarida o'zbek tili bo'limi bo'yicha bir necha kishi ham ishga oliningan edi hamda ko'pincha vazirliklar va boshqa tashkilotlar ham o'zbek tili bo'limlari ochilishi haqida va'da bergan edilar. Biroq Afg'onistonda o'zbek tilida yozish va odamlar hukumat tashkilotlarida o'zbek tilida so'zlashishlari taqiqlanib, jarima to'lashga majbur qilingan paytlaridan uncha ko'p vaqt o'tmay, bugunga kelib pushtun va fors-dariy tillari yonida o'zbek tili, prezident saroyi va davlatning muhim tashkilotlari matbuotida o'rin topib, ushbu tilda xabar tarqatilishi demokratik tizimning fazilat-

lari deyilsa to'g'ri keladi. Bu harkatlarning o'zi katta yutuq [To'lqin 2020, 242-241].

Afg'oniston Islom Respublikasi hukumati ag'darilib, Tolibon hokimiyatga kelgandan so'ng ushbu yuqori martabali tashkilotlarning bir qanchasining o'zi o'rtadan ketgan, mavjud bo'lib turgan davlat tashkilotlari ham ijtimoiy tarmoqlarida o'zbek tilida yoyilmalar berayotgani sezilmayapti. Hozirgi vaziyat o'zbek tili uchun juda achinarlidir.

“Oldingi Tolibon guruhi qulatilishi va Afg'onistonda yangi hukumat tuzilishi ortidan Afg'oniston Xalq ta'limi vazirligi o'zbeklar yashayotgan hududidagi maktablarda o'zbek tilida ta'lim tizimini qayta tikladi. Xalq ta'limi vazirligi oltinchi sinfgacha o'zbek tili darsliklarini tarqatdi” [Toshqin 2020, 77-78].

O'zbek tili va adabiyotining o'qitilishi

Lekin o'zbek tili va adabiyotini o'qitish o'zbeklar yashayotgan viloyatlardagi maktablarda davom etayotgan bo'lsa-da, bu maktablarda o'zbek tilini o'qitish ko'plab kamchiliklar va qiyinchiliklarga duch kelgan. Maktablarda o'zbek tili darsliklarining yetishmasligi, ayniqsa beshinchi sinfdan o'ninchi sinfgacha o'zbek tili darslik kitoblarining tarqatilmaligi, maktab o'quv dasturlariga o'zbek tili darsliklarining kiritilmaligi maktablarda o'zbek tilini o'qitishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muammolardir” [Samim 2020, 249-250].

Shuningdek, “O'zbek tili bo'limi birinchi marta 1983-yilda Kobul universitetining til va adabiyot fakultetida ochilgan. Bu bo'lim o'z faoliyatini prezident Dr. Najibullo hukmronligining oxirigacha davom ettirdi. 1992-yilning may oyida fuqarolar ichki urushlari boshlanishi bilan Kobuldagi o'zbek bo'limi qariyb o'ttiz yil davomida harakatsiz bo'lib qoldi. Kobul universitetining O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida 2009-yilda qayta ochildi va bugun Afg'onistondagi turli etnik guruhlardan kelgan talabalar bu bo'limda ta'lim olmoqda.

Hozirgi kunda Kobul va shimoliy viloyatlar bilim yurtlarining har biri Foryob, Javzijon, Saripul, Balx, Bag'lon, Taxor va Badaxshon viloyatlarida sakkizta O'zbek tili va adabiyoti kafedralari mavjud. Shuningdek, ushbu shimoliy viloyatlarda o'qituvchilar malakasini oshirish institutlarida O'zbek tili va adabiyoti kafedralari tashkil etilgan [Kuhkan 2020, 1].

Tadqiqotchi Muhammad Halim Yorqinning “Kitobnoma” asari birinchi jildida 202 ta kitob va “Kitobnoma”ning ikkinchi jildida 182 ta kitob chopdan chiqarilib, tanishtirilgan. Bu kitoblar esa

she'riy asarlar, she'riy tarjima asarlar, badiiy nasr bo'yicha ijodiy asarlar, tarjima asarlar, tazkiralalar, til va tilchilik asarlari, ilmiy-adabiy tekshiruvlar, xalq og'zaki ijodi, tarix va umumiy kitoblardan iborat bo'lgan. "Kitobnoma"ning 80 dan oshiq kitobi 1967-2000-yillar orasida chopdan chiqarilgan kitoblar, qolganlari esa 2001-2021-yillar orasida chopdan chiqarilgan kitoblardir [Yorqin 2010, 7-179]. Mazkur tadqiqotchining kitoblari asosan Afg'oniston o'zbeklariga teqishli, Afg'oniston hududi va undan tashqarida arab yozuvida nashrdan chiqarilgan kitoblar soni 384 ta bo'lgan. Lekin yangidan qancha kitoblar ham bosmadan chiqqan, qo'limizda aniq hujjatlar bo'lmaganligi sababli ushbu maqolaga kirita olmadik. Shunga ko'ra, "Afg'oniston Islom Respublikasi 2020-yilda oktyabrning 21-kunini "Afg'oniston milliy kuni" deb tasdiqladi. Ushbu kun davlat tomonidan o'zbek milliy kuni sifatida tanilib, Afg'oniston taqvimiga kiritildi" [Zahir 2020, 6].

So'nggi yillarda o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha bir qancha kadrlar tarbiyalandi. Ayniqsa O'zbekiston davlati yordami bilan hunar va ta'lim sohasida ko'plab Afg'onistonda istiqomat qilayotgan o'zbek farzandlari ta'lim-tarbiya olib, mamlakatlariga ketdilar. Hozir ham bir qancha talabalar va tadqiqotchilar, bakalavr, magistrlik va tayanch doktorantura bosqichlarida O'zbekistonda ta'lim olmoqdalar.

Milliy musiqaning xalq hayoti va til rivojidadagi o'rni

Kitob nashr qilish, yetkarma (OAV)lar, universitetlar va she'r, shoirlikdan tashqari, til rivoji va taraqqiyoti uchun musiqa juda ahamiyatlidir. Shu sababli yillar davomida o'zbek musiqasini rivojlantirish uchun ko'plab ishlar bajarilgan. Ushbu bajarilgan ishlarning barchasini izohlash maqolaning ko'lamidan kelib chiqib qisqa bo'lsa ham eslashi o'rinlidir. Ayniqsa yigirma yildan oldingi davrga tegishli bo'lgan o'zbeklarning "Zafar" musiqa guruhi ijodining ishi o'zbek tili uchun unumli bo'lgan. O'sha davrda bir qancha o'zbek va turkman yigit-qizlari bu sohada yetishib chiqdi. O'nlab qo'shiqlar kuylandi, radio va televideniyalarda qo'yildi. Keyinchalik mana shu yigirma yil orasidagi barcha radio va televideniya, asosan, o'sha ashula-kuylardan foydalandilar. Kobulda musiqa guruhlarida Afg'oniston bo'yicha o'tkazilgan bellashuv musiqa festivalida, "Zafar" guruhi o'zining chiroyli kuy va ashulalari va ijrosi bilan ikkinchi o'rinni egillagan edi. Ana shu paytda "Zafar" guruhi boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun musiqa o'quv kitobini ham tayyorlab nashr qilgan. Bu faoliyat esa o'zbek tili uchun asosiy ish

sanaladi [Yorqin 2002, 24-26].

Mana shu ishlar izidan ergashib 2007-yili Javzijon viloyatining Shibirg'on shahrida Afg'oniston do'mbirachilarining katta festivali o'tkazildi. Unda 60 ta san'atkor, 10 ta viloyatdan mohir do'mbirachilar va dostonchi baxshilar qatnashgan edilar. Maxsus hakamlar komissiyasi tomonidan bellashuv g'oliblari aniqlanib, har bir san'atkorga maxsus sovrinlar topshirdi [Yorqin 2010].

Ilmiy, adabiy anjumanlar

Mana shu kabi musiqiy bellashuvlar doirasida Kobul va turli viloyatlarda o'nlab ilmiy, adabiy seminarlar o'tkazildi. Ayrimlari xalqaro miqyosda, jumladan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar haqida, viloyatlar miqyosida esa Mashrab Namangoniy, Nodirabegim, Nafir Foryobi, Ibrohim Adham, Fuzuliy, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidov, Tengriberdi, Matin Andxo'yi, Kubro Kayvon, Nazar Muhammad Obir, Nodim Qaysori va boshqalar haqidagi tadbirlar o'zbekona ko'rinishi bilan nishonlandi. Hozirgi kunda yashab ijod qilib kelayotgan afg'onistonlik o'zbek shoir va yozuvchilari uchun ilmiy yig'inlar tashkil qilinib, munosiblari taqdirlanganidan xabardormiz. Ustod Toshqin Bahoiy, Doktor Shafiqa Yorqin, Muhammad Kozim Amini va boshqalar ijodkorlar bilan turli tashkilotlar tomonidan bir qancha tadbirlar, mushoiralar o'tkazildi. Shuningdek, o'zbek siymolari ijodi haqida ilmiy anjumanlar nishonlanib, ilmiy va tadqiqiy maqolalar o'qildi. Mazkur anjumanlarda o'qilgan maqolalar to'plam qilib bosilib chiqarildi. Hozirda ushbu to'plamlardan o'zbek o'quvchilari foydalanmoqda.

Afg'oniston o'zbek badiiy nasri 1982-yili boshlangan bo'lsa-da, shu qisqa 20 yil ichida o'zbek yozuvchilari tomonidan o'ndan ortiq hikoyalar yozildi. Bu asarlarda badiiy hikoya, tanz (hajviyalar), namoyishnoma (drama) turlari yaratilib, hatto ikkita "O'qishning izi, Kukcha va Jayhun" va "Erganaqun" romani ham yozildi [Yorqin, Rahim Ibrohim 1361].

Mana shu yigirma yil davomida, universitetlar va o'qituvchilar tarbiyalash muassasalarining ustodlari hamda o'quvchilari orqali o'zbek tili va adabiyoti, tarix va madaniyati bo'yicha o'nlab ilmiy va tadqiqiy monografiyalar yozildi. Afg'oniston universtet va institutlarida 100 ga yaqin o'zbek tili o'qituvchilar shug'illanib kelmoqdalar. Shuning barobarida 2000 ga yaqin talabalar ham o'zbek tili va adabiyotini o'qib kelmoqda. 2001-2021-yilgacha taxminan 5000 dan oshiq kishilar o'zbek tilining bakalavr bosqichini bitirganlar.

So'nggi yigirma yilda Afg'onistonda istiqomat qilayotgan o'zbeklar o'z ona tillari rivoji uchun fidoyilik ko'rsatib, o'zlariga taxallus tanlashda, kompaniyalar, do'konlariga turkcha-o'zbekcha so'zlardan nom tanlab qo'yishlari ham diqqatga sazovordir. Bu esa, xalqimizda tilsevarlik va ona tilimizga muhabbat tuyg'ulari uyg'onib, kuchayganiga yaqqol dalildir.

Xulosa

Afg'onistondagi o'zbek tili va adabiyoti uchun ayrim to'siqlar hamda kamchiliklarni quyidagicha guruhladik:

1. Davlat, asosiy qonunda qayd etilganidek, uchinchi rasmiy tillar, jumladan, o'zbek tili rivoji va yuksalishi uchun va'da berilganidek tizimli va ko'lamli ishlarni qilmadi.

2. Ta'lim sohasida maktablarda o'zbek tilini o'qitish uchun dars soatlari miqdori aniq berilmagan.

3. Maktablarda o'zbek tili uchun boshlang'ich sinflarda ayrim hududlarda o'zbek tilidagi sinflar ochilmagan.

4. Mutaxassis o'qituvchilar uchun yetarli ish o'rni yaratilmagan.

5. Maktablarda o'zbek tili o'qitilishi uchun kitoblar tarqatilmaydi yoki hamma mintaqalarga to'liq yetib bormaydi. O'zbek tili darslari mutaxassis bo'lmagan o'qituvchilarga beriladi va dars jadvalida o'zbek tili dars soatlari belgilanmagan.

6. O'zbek tili ishlarini boshqa kichik tillarga bog'lab qo'yish. O'rnak uchun o'zbek tilida o'quv kitoblari 12-sinfgacha nashr qilingan edi. Biroq ular fors va pushtun tillari kitoblari bilan chopga yuborilmay, zo'rg'a 3-4-sinfgacha yozilgan kitoblar chop etildi. Qolgan o'zbek tili kitoblari esa kam so'zlashuvchi tillar, jumladan, pashshayi, nuristoniy, barohaniy, shig'noniy va boshqa tillardagi kitoblarning nashr qilinishiga bog'lab qo'yilgan edi. Aslida bu o'zbek tiliga e'tibor berilmaganligiga asosdir.

7. Xuddi shunday vaziyat o'zbek tili bo'yicha matbuot va radio va televideniyalardagi dasturlar paytlarida ham katta to'siq edi.

8. Tilimiz rivoji uchun muhim muammolardan biri umumiy yozuv, shundan kelib chiqib, imlo birligi yo'qligidir. Hozircha, Afg'oniston o'zbek yozuvlarida chamasi 4 xil arabcha yozuv va 3 xil lotin yozuvi qo'llanilmoqda. Xuddi shundan kelib chiqib, har kim o'zicha tanlagan yo yoqtirgan imlo bilan yozmoqda. Bular esa yozuvlarda katta chalkashlik, har xillik, ko'pincha yanglishlar va tushunmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Afg'oniston tarixidagi 2001-2021-yillar o'zbek tili uchun o'zgarish va taraqqiyot yili deb hisoblanadi. Shuning uchun maqola nomi "O'zbek tilining Afg'oniston Islom Respublika davridagi ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni" deb nomlanib, ushbu mavzu haqida tekshiruvlar amalga oshirilgan. Bu tekshiruv asosida Afg'onistonda o'zbek tili taraqqiyotidagi kamchiliklar va yutuqlar izohlandi.

Adabiyotlar

- Aral, Azizullah. 2020. Kirish. *Unutilmas maqolalar va she'rlar to'plami*. Labib M.Olim va boshqalar. 10, Kobul. Afg'oniston, Voja.
- Daqiq Qonunmal, Muhammad Rahim. 2013. *Qonun asosiy Afg'oniston* (1382-1301h), Afg'oniston, nashr vazorati adliyai Afg'oniston.
- Kuhkan M. Olim. 2020. *Joygohi zaboni O'zbeki dar Afg'oniston, az guzashtai mahrum to tajlili on dar sathi milliy*. Kobul. Afg'oniston, BBC, www.bbc.com/kabul/afganiston
- Tuyg'un, Sayid Husomuddin. 2020. "Afg'oniston O'zbek tilining yetkarmalar va ijtimoiy tarmoqlardagi ahvoli". *Unutilmas maqolalar va she'rlar to'plami*. Labib M.Olim va boshqalar. 10, Kobul. Afg'oniston, Voja.
- To'lqin Muhammad Hasan. 2020. "O'zbek tilining davlat idoralari nashriyotidagi o'rni". *O'zbek tili milliy kuni va maqolalar va she'rlar to'plami*, Labib M.Olim va boshqalar. Kobul: Afg'oniston, Voja.
